

O‘SMIR SHAXSIDA KREATIVLIKNI SHAKLLANTIRISHDA TA‘LIM TIZIMINING O‘RNI

Qayumov Baxtiyor Zokirjon o‘g‘li

Namangan davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya: Ta‘lim sohasidagi mutaxassislar va pedagoglarning fikriga ko‘ra, ijodiy faoliyat bilan bog‘liq fikirlash jarayonlarida mashg‘ul bo‘lish deb tushunilgan kreativ fikrlash bir qator boshqa shaxsiy ko‘nikmalarning rivojlanishiga ham olib keladi.

Kalit so‘zlar: Jamiyat, ta‘lim, o‘qituvchi, o‘smir, kreativlik, stimuly, tafakkur, muloqot, ko‘nikma, kreativ baholash, PISA baholash dasturi.

Ta‘lim tizimini boshqarish organlari har yili ta‘lim muassasalarida yuqori samaradorlikka erishishga e‘tibor qaratadi. Ana shu maqsadda o‘quv dasturini ishlab chiqiladi, yangi o‘quv darsliklari yaratiladi. Bu esa ham o‘quvchilar, ham o‘qituvchilar, ham o‘qituvchilarni kasbiy o‘shishlariga yordam beradi. Olib boriladigan amaliy harakatlar o‘quvchilarda yutuqlarga erishish, olg‘a intilishga bo‘lgan ehtiyojini muayyan darajada yuzaga keltiradi, ularning o‘quv-bilish qobilyatlarini bir qadar rivojlantirishga yordam beradi. Biroq o‘quv yilining oxiriga kelib ta‘lim muassasalarida o‘quvchilarning fanlarni o‘zlashtirishda yuqori darajadagi ijobiy natijalar kuzatilmayapti. Ko‘plab o‘quvchilarning ta‘lim olishga bo‘lgan qiziqishi susaygan. Buning natijasida o‘qituvchilar ham avvalgidek zavqu shavq bilan kasbiy faoliyatni tashkil etishni o‘ylashmayapti. Ta‘lim tizimini boshqaruvchi organlar ta‘lim olishga nisbatan xohish-istagi bo‘lmagan o‘quvchilar, bu kabi ta‘lim oluvchilarni o‘qitishni istamayotgan

o'qituvchilar faoliyatini o'zgartirish borasida yangidan-yangi chora-tadbirlar belgilansada, ahvol o'zgarishsiz qolmoqda. Buning sababi nimada? Balki darslarni avvaldan o'ylab, rejalashtirib qo'yilishi o'quvchilar uchun qiziq bo'lmayotgandir, balki ta'lim mazmunining muayyan qolipga solinganligi o'quvchilar uchun hech qanday stimuly bermayotgandir rag'bat bildirmayotgandir. O'quv mashg'ulotlarini avvaldan rejalashtirishdan voz kechish, o'quvchilarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlash, yangi g'oyalarni o'ylab topishga majbur qilish ta'lim olishga bo'lgan munosabatni o'zgartirish, ularni yutuqlarga erishishga rag'batlantirishda asosiy omil bo'lar. O'quv mashg'ulotlarida yetishmayotgan omil kreativlik - sanaladi.

O'smir shaxsida kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to'laqonli anglash uchun dastlab “kreativlik” tushunchasining ma'nosini tushunib olish talab etiladi. Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, “Avvalgi uchrashuvlarda ta'lim va ilm-fan, davlatning yoshlarga oid siyosatini amalga oshirish, ta'limning yangi, zamonaviy usullarini, jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish sohasidagi ishlar ahvoli tanqidiy tahlil qilib berilgan edi. Bu boradagi dolzarb vazifalarni amalga oshirish yoshlarimiz, jamiyatimiz va mamlakatimizning kelajagi uchun strategic ahamiyatga ega ekani sababli ushbu sohadagi ishlar shaxsan Bosh vazirga yuklatilgan. Sizning e'tiboringizni yuqoridagi vazifalarni amalga oshirishga qarataman”.[1] Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda “kreativlik” tushunchasini quyidagicha sharxlash mumkin: Ken Robinsonning fikriga ko'ra, “kreativlik – o'z qiymatiga ega orginal g'oyalar majmui” sanaladi. Gardner esa o'z tadqiqotlarida tushunchani shunday izohlaydi: “kreativlik – shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo'lib, u o'zida muayyan

yangilikni aks ettirishi va ma'lum amaliy qiymatga ega bo'lishi lozim". Emebaylning yondashuvi nuqtai nazaridan ifodalansa, kreativlik muayyan soha bo'yicha o'zlashtirgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko'nikmalarga ham ega bo'lish demakdir. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa kreativlik zehning o'tkirligini belgilab beradi, o'smirlarning e'tiborini ta'lim jarayoniga faol jalb etishni ta'minlaydi.

Kreativ yondashuv va yutuqlar dunyo bo'ylab fan va texnikadan tortib, falsafa, san'at va ijtimoiy fanlar kabi turli sohalarda insoniyat tamaddunini ilgari surgan. Kreativlik shunchaki tasodifiy g'oyalar berishdan kattaroq narsadir. U insonga ba'zan murakkab sharoitlarda, yanada yaxshiroq natijaga erishishga imkon beruvchi bilim va tajribaga asoslangan real ko'nikmadi. Bugungi kunda ta'lim sohasidagi mutaxassislar va pedagoglarning fikriga ko'ra, ijodiy faoliyat bilan bog'liq fikrlash jarayonlarida mashg'ul bo'lish deb tushunilgan kreativlik bir qator boshqa shaxsiy ko'nikmalarning rivojlanishiga ham olib keladi. Shular jumlasiga metakognitiv qobiliyat, insonlar bilan muomila qilish va shaxni o'zini yaxshiroq anglash ko'nikmalari, muammoni hal etish ko'nikmalari kiradi. Shu bilan birga shaxs kamoloti, ta'lim olishdagi muvafaqqiyati va jamoatchilik orasidagi obro'si ham insonning kreativ fikrlash ko'nikmasiga bog'liq. Kreativ fikrlashni baholash xalqaro dasturini rivojlantirish ta'lim siyosati va pedagogikasida ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lishi mumkin. Xalqaro PISA baholash dasturi bo'yicha olib boriladigon tadqiqotlardagi kreativ fikrlash yo'nalishining baholashi mutasaddilarga dalillarga asoslangan to'xtamga kelishda ko'maklashuvchi aniq, ishonchli va amalga oshirish mumkin bo'lgan baholash

vositasini taqdim etadi. Natijalar, shuningdek, jamiyatda ushbu muhim ko'nikmani ta'lim orqali rivojlantirishning ahamiyati va usullari borasidagi bahslarga sabab bo'ladi. Kreativlikni shakllantirishda ta'limning asosiy vazifasi o'smirda jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirish uchun bugun va kelajakda kerak bo'ladigan ko'nikmalarni shakllantirishdir. Kreativlik bugungi yoshlar ega bo'lishi kerak bo'lgan muhim ko'nikma bo'lib, bu ko'nikma ularga doimiy tarzda va shiddat bilan o'zgarayotgan, oddiy savodxonlikdan tashqari yangilanayotgan davrga xos ko'nikmalarga ega kadrlarni talab etayotgan makonga moslashishga ko'maklashadi. Umuman olganda, bugungi o'quvchi kelajakda hozir hatto mavjud bo'lmagan sohalarda ishlashi, yangi muammolarni yangi ko'nikmasini shakllantirish ularga tobora murakkablashayotgan mahalliy va global muammolarni noodatiy yondashuv orqali hal etish imkonini beradi. Ta'limda kreativlikni rivojlantirishning ahamiyati faqatgina mehnat bozori bilan cheklanmaydi. Ta'lim yoshlar uchun o'z qobiliyat va ko'nikmalarini, shu jumladan ijodiy iste'dodlarini kashf etishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, kreativlik o'smirlarning ta'lim olishini hodisalar, tajribalar va xatti-harakatlarni yangicha va shaxsan mazmunli usulda talqin etish orqali qo'llab quvvatlaydi. O'smirlarning qiziquvchanligi ta'lim jarayonida qo'l keladi, ijodiy fikrlash shu tariqa o'zaro kelishuvchanlik vositasiga aylanadi, hattoki, avvaldan belgilangan ta'lim maqsadlari konteksida ham bu samara beradi. Maktabda o'smirning motivatsiyasi va qiziqishini oshirish uchun barcha o'quvchilarning ijodiy salohiyati va shijoatini hisobga oluvchi ta'limning yangi shakllari yo'lga qo'yilishi zarur. Bu ayniqsa ta'lim jarayoniga unchalik qiziqish bildirmayotgan o'smirlarga yordam berishi mumkin va ular o'z fikrini ayta olishga, salohiyatini ochishga xizmat qiladi. Boshqa ko'nikmalar kabi, kreativlik ham amaliy va yo'naltirilgan yondashuv orqali rivojlantirilishi mumkin. Ba'zi pedagoglarga

o'quvchining kreativ fikrlashini rivojlantirish o'quv dasturidagi boshqa fanlar evaziga bo'layotgandek ko'rinadi. Aslida o'quvchilar barcha fanlarda kreativ fikrlashi mumkin. Kreativ fikrlash bilim berishga qaratilgan dars mobaynida ko'r – ko'rona yodlash o'rniga tadqiqot va ixtironi qo'llab – quvvatlaydigan yondashuvlar orqali rivojlantirish bilan alohida ahamiyatga ega. Kreativlik ko'nikmalarini baholash isbotga tayangan dalillar asosida shakllantirilib, o'quvchilar kompyuter platformasida qilayotgan, o'qiyotgan va yaratayotgan narsalarni ko'p jihatli malakalar bilan bog'laydi. O'smirlarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagi shartlarga e'tibor qaratish zarur:

- O'smirning mustaqilligini rag'batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;
- Mustaqil faoliyatni tashkil etish uchun imkoniyat yaratish;
- O'smir qiziqishlariga e'tibor qaratish.

Kreativ pedagog har tomonlama rivojlangan, har bir darsni qiziqarli o'ta oladigan, yangi metodlar va texnikalardan xabardor va barcha o'quvchilar uchun sevimli bo'lgan mahoratli ustoz bo'lmog'i lozim. Shuni unutmazlik kerakki bugungi jamiyat bir xillikdan zerikdi. Endi faqatgina kreativ o'ylagan insongina hammadan ajralib turadi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, kreativlik hozirgi kunda judayam kam uchraydigan narsalardan biri hisoblanadi. Bunga sabab ko'pchilik pedagog o'qituvchilarni o'z ustida ko'p ishlamasligida deb aytsak bo'ladi. Kreativlik uchun qobiliyat tug'ma bo'lishi kerakmi degan savol tug'uladi. Qaysidir ma'noda albatta kerak bo'ladi, lekin hammasi mehnatga, o'z ustida ishlashga borib taqaladi. O'quv mashgulotlarining avvaldan rejalashtirilishidan voz kechish, o'smirlarning kreativ tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlash, yangi g'oyalarni o'ylab topishga majbur qilish, ta'lim olishga bo'lgan

munosabatni o'zgartirish, ularni yutuqlarga erishishga rag'batlantirishda asosiy omil bo'ladi. Buning uchun pedagog darslarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etish, yangi g'oyalarni ta'lim jarayonida sinab ko'rishga intilish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizning 2016-yilning ijtimoiy rivojlantirishga oid asosiy yil yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan Iqtisodiy dasturning muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan ma'ruzasi/
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O'zbekistonning yangi yaraqquiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6108-sonli farmoni.
3. Василюк.Ф.Е. Психология переживание М 1984.
4. Қаюмов, Б. З. Ў., & Абдурахмонов, О. А. Ў. (2021). ТАЛАБАЛАРДА ШАХСИЙ ВА ИНТЕЛЛЕКТУАЛ ФАЗИЛАТЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМЛАРИ. Scientific progress, 1(6), 750-754.
5. www.ziyonet.uz
6. Odilboyevich, Jurayev Haydarjon. "SHAXS XAYOT DAVOMIDA PSIXOLOGIK HIMOYA MECHANIZMLARINING ORNI VA AXAMIYATI." ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ 16.2 (2023): 128-133.